




UO'T: 633.1:631.51

KUZGI TRITIKALE NAVLARINI YASHOVCHANLIGIGA EKISH MUDDATLARI VA ME'YORLARINING TA'SIRI

Ismoilov Voxid Isropilovich 
q.x.f.f.d., (PhD)

Tursunov Shermuxammad Nurmatovich 
Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasi

Xudoyqulov Sarvar Abdushukurovich 
Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada kuzgi tritikaleni Davlat reyestriga kiritilgan Norman hamda Farxod navlari unib chiqishi, hosil yig'ishtirishgacha yashovchanligiga ekish muddatlari va me'yorlarini ta'siri natijasida olingan ma'lumotlar bayon etilgan. Tadqiqotlar natijasida har ikkala navni ekish muddati 01 va 15 oktyabrda 5,0 mln.dona/ga, ekish muddati 30 oktyabr va 14 noyabrda esa ekish me'yorlari 6,0 mln.dona/ga urug' sarflash tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: tritikale, nav, Norman, Farxod, ekish muddati, ekish me'yorlari, urug', yashovchanlik.

Аннотация. В статье представлены данные о всхожести осеннего тритикале сортов Норман и Фарход, внесенных в государственный реестр, в зависимости от сроков и норм посева до сбора урожая. В результате исследований рекомендуется для обоих сортов проводить посев 1 и 15 октября с нормой 5,0 млн. семян/га, а также 30 октября и 14 ноября с нормой 6,0 млн. семян/га.

Ключевые слова: тритикале, сорт, Norman, Farxod, дата посева, норма высева, семена, всхожесть.

Abstract. The article presents data on the germination of autumn triticale varieties Norman and Farhod, which have been included in the state register, depending on the timing and norms of sowing before harvest. As a result of the research, it is recommended to sow both varieties on October 1 and 15 at a rate of

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

5.0 million seeds/ha, as well as on October 30 and November 14 at a rate of 6.0 million seeds/ha.

Keywords: Tritukale, variety, Norman, Farxod, sowing date, sowing rate, seed, viability.

KIRISH

Tritikale yangi istiqbolli qishloq xo'jaligi ekinlari bo'lib, uning qishga chidamliligi, zamburug'li kasalliklarga chidamliligi, yuqori mahsuldorligi, don sifati va yashil massasi kabi ko'plab foydali biologik va iqtisodiy xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy navlar 7-10 t/ga don va 35-50 t/ga yashil massa beradi. Ulardan ba'zilari oqsil tarkibi va muhim aminokislotalari bug'doydan ustundir. [5]

Dunyoda tritikale donini yetishtirish 40 dan ortiq mamlakatlarda yiliga 20 mln tonnadan oshdi va uning yarmi yevropa davlatlariga to'g'ri keladi. Tritikale inson tomonidan yaratilgan birinchi sintetik donli ekin bo'lib, u bug'doy va javdarni duragaylash asosida olingan. Tritikale ekini donining oqsil tarkibida lizin, triptofan kabi qimmatli aminokislotalarining mavjudligi bilan uning oziq-ovqat va ozuqaviylik qiymatini belgilaydi. Donning to'yimlilik jihatidan arpa va jo'xori donidan qolishmaydi. Undan don, ko'kat, pichan, un talqoni, silos, senaj kabi mahsulotlar tayyorlanadi. O'zbekistonda bu ekindan don va ko'k pichan olish uchun hamda oraliq ekin sifatida yetishtiriladi [1; 2; 3;4;].

Kuzgi don ekinlarida urug'larning unib chiqishi, o'simliklarni qishlab chiqishi, o'simliklarni hosilni yig'ishtirishgacha saqlanishi (yashovchanlik) ko'rsatkichlari hosil shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Hosilni yig'ishtirish davrigacha o'simliklar sonini saqlanishi (yashovchanlik) ayrim manbalarda ekilgan urug'lar soniga nisbatan aniqlansa, boshqalarida unib chiqqan maysalar soniga nisbatan aniqlanadi. Biz tadqiqotlarimizda unib chiqqan maysalar soniga nisbatan hosilni yig'ishtirishgacha saqlangan o'simliklar nisbati bo'yicha yashovchanlik aniqlandi [1; 3].

Kuzgi don ekinlarining dala unuvchaligi, qishlab chiqish darajasi, hosil yig'ishtirishgacha saqlanuvchanligining yuqori bo'lishi ekinning yetishtirish agrotexnikasini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishga bog'liq. Uning asosiy elementlaridan ekish muddatlari hamda me'yorlarini to'g'ri amalga oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Dala tajribalari Samarqand viloyati Ishtixon tumanida joylashgan Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida 2022-2023 yillarda o'tkazildi.

Tajriba tuzilmasi bo'yicha dala tajribalari 4 qaytariqli, har bir paykalchanning hisobga olinadigan kattaligi 50 m² ga teng bo'lib, ular bir pog'onali qilib joylashtirildi. Tajriba dalasining umumiy maydoni 12 902,4 m². Paykalchalar

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

maydoni -100,8 m² (uzunligi 28 m, kengligi 3,6 m). Tajribalarda tritikale parvarishi mazkur mintaqa uchun qabul qilingan agrotexnologiyalar asosida bajarildi.

Tadqiqotlarda barcha kuzatuvlar tuproq va o'simlik namunalari tahlillari hamda hisob kitoblar "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (2014) [6] qo'llanmasi asosida o'tkazildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tritikale urug'larning dala sharoitida unuvchanligi va qishlab chiqqan o'simliklar soni hosilni yig'ishtirishgacha saqlanib qolgan o'simliklar miqdorini belgilashda katta rol o'ynaydi.

Ekish muddatlari va me'yorlarini kuzgi tritikale navlarini hosil yig'ishtirishgacha yashovchanligiga ezilarli darajada ta'sir qildi. Ekish muddati erta (1.10) muddatdan kechki (14.11) muddatga o'tishi tritikale navlarining yashovchanligini keskin kamartirib yuborishiga olib keldi. Farxod navini erta (1.10) muddatda ekilgan variantlarda hosil yig'ishtirishgacha saqlanib qolgan o'simliklar 1 m² da 189-468 dona (68,7-81,3 %) atrofida bo'ldi. Ekish muddati 15 oktabrda ekilgan variantlarda eng yuqori 1 m² da 193-476 dona (71,2-82,0 %) bo'lganligi aniqlandi.

1-jadval

Kuzgi tritikalening Norman nav hosil yig'ishtirishgacha saqlanuvchanligiga ekish muddat va me'yorlarining ta'siri (2022-2023 yy)

Ekish muddatlari	Ekish me'yorlari	1 m ² da o'simliklar soni		
		unib chiqqan maysalar, dona	hosilni yig'ishtirishdan oldin, dona	Yashovchanlik, %
1 oktabr	3,0 mln.dona/ga	275	189	68,7
	4,0 mln.dona/ga	379	291	76,8
	5,0 mln.dona/ga	481	391	81,3
	6,0 mln.dona/ga	583	468	80,3
15 oktabr	3,0 mln.dona/ga	271	193	71,2
	4,0 mln.dona/ga	375	292	77,9
	5,0 mln.dona/ga	479	393	82,0
	6,0 mln.dona/ga	583	476	81,6
30 oktabr	3,0 mln.dona/ga	260	176	67,7
	4,0 mln.dona/ga	369	281	76,2
	5,0 mln.dona/ga	471	376	79,8
	6,0 mln.dona/ga	572	463	80,9
14 noyabr	3,0 mln.dona/ga	240	147	61,3
	4,0 mln.dona/ga	345	237	68,7
	5,0 mln.dona/ga	448	336	75,0
	6,0 mln.dona/ga	556	435	78,2

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Kechki muddat 14 noyabrda ekilgan variantlarda tritikalening Norman va Farhod navlarining yashovchanligi gektariga 3,0 mln.dona urug' ekilgan variantda navlarga mos ravishda 61,3 va 59,7 % bo'lgan bo'lsa, 4,0 mln.dona/ga variantida 68,7 va 67,1 %, 5,0 mln.dona/ga variantida 75,0 va 73,6 % va 6,0 mln.dona/ga urug' ekilgan variantida esa mos ravishda 78,2 va 77,2 % bo'lganligi qayd etildi.

Norman navini maqbul ekish muddati 15 oktabrda ekilgan variantlarda ekish muddati 1 oktabrda ekilgan variantlarga nisbatan gektariga 3,0 mln.dona urug' ekilgan variantda yashovchanlik 2,5 %, 4,0 mln.dona/ga urug' ekilgan variantda 1,1 %, 5,0 mln.dona/ga urug' ekilgan variantda 0,7 % va gektariga 6,0 mln.dona urug' sarflangan variantda esa 1,3 % ga yuqori bolganligi qayd etildi. Yashovchanlik eng kam bo'lgan kechki (14.11) muddatda ekilgan variantlarga nisbatan 15 oktabr ekilgan variantlarda mos ravishda 9,9; 8,7; 7,0 va 3,4 % yuqori bo'ldi.

Ekish muddati 30 oktabrda ekilgan variantlarda, 1 oktabr ekilgan variantlarga nisbatan hosil yig'ishtirishdan oldin 1 m² dagi o'simliklar 3,0 mln.dona/ga variantida 13 dona, 4,0 mln.dona/ga variantida 10 dona, 5,0 mln.dona/ga variantida 15 dona va gektariga 6,0 mln.dona urug' sarflangan variantda esa 5 donaga kam o'simlik saqlanib qolganligi aniqlandi.

2-jadval

Kuzgi tritikalening Farhod navi hosil yig'ishtirishgacha saqlanuvchanligiga ekish muddat va me'yorlarining ta'siri (2022-2023 yy)

Ekish muddatlari	Ekish me'yorlari	1 m ² da o'simliklar soni		
		unib chiqqan maysalar, dona	hosilni yig'ishtirishdan oldin, dona	Yashovchanlik, %
1 oktabr	3,0 mln.dona/ga	272	184	67,6
	4,0 mln.dona/ga	377	286	75,9
	5,0 mln.dona/ga	475	383	80,6
	6,0 mln.dona/ga	580	463	79,8
15 oktabr	3,0 mln.dona/ga	266	186	69,9
	4,0 mln.dona/ga	372	287	77,2
	5,0 mln.dona/ga	477	391	82,0
	6,0 mln.dona/ga	578	469	81,1
30 oktabr	3,0 mln.dona/ga	256	170	66,4
	4,0 mln.dona/ga	365	275	75,3
	5,0 mln.dona/ga	466	369	79,2
	6,0 mln.dona/ga	567	455	80,2
14 noyabr	3,0 mln.dona/ga	238	142	59,7
	4,0 mln.dona/ga	340	228	67,1
	5,0 mln.dona/ga	444	327	73,6
	6,0 mln.dona/ga	549	424	77,2

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Tritikalening tajribada o'rganilgan navlarini hosil yig'ishtirishgacha saqlanuvchalligi (yashovchanligini) bo'yicha tahlil qilganimizga, Norman navi Farxod naviga nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi aniqlandi. Maqbul ekish muddati 15 oktabrda ekilgan variantlarda Norman navida Farxod naviga nisbatan gektariga 3,0 mln.dona urug' sarflangan variantda yashovchanlik 1,3 % yuqori bo'lgan bo'lsa, 4,0 mln.dona/ga urug' ekilgan variantda 0,7 % va 6,0 mln.dona/ga urug' sarflangan variantda esa 0,5 % yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Har ikkala navda ham erta va o'rta muddatlarda ekish me'yorini gektariga 5,0 mln.donadan 6,0 mln.donaga oshirish o'simlikni yashovchanligini kamayishiga olib keldi.

Norman navini ekish muddati erta (1.10), ekish me'yori 5,0 mln.dona/ga urug' ekilgan variantda yashovchanlik 81,3 % bo'lgan bo'lsa, 6,0 mln.dona/ga urug' sarflangan variantda yashovchanlik 1,0 % ga kam bo'lganligi kuzatildi. Ekish muddati o'rta (15.10) muddatda esa gektariga 5,0 mln.dona urug' sarflangan variantiga nisbatan gektariga 6,0 mln.dona urug' ekilgan variantda 0,4 % kam bo'ldi. Bunday qonuniyat tajribada o'rganilgan tritikalening Farxod navida ham takrorlanish kuzatildi.

Kechki (30.10 va 14.11) muddatlarda ekilganda har ikkala navda ham ekish me'yorlari oshib borishi bilan yashovchanlik yuqori bo'ldi. Ekish muddati 14 noyabrda ekish me'yori gektariga 3,0 mln.dona urug' ekilgan variantga nisbatan gektariga 4,0 mln.dona urug' ekilgan variantda Norman va Farxod navlarda bir xil 7,4 % yuqori bo'lgan bo'lsa, 5,0 mln.dona/ga variantida navlarga mos ravishda 13,7 % va 13,9 % hamda gektariga 6,0 mln.dona urug' ekilgan variantda esa 16,9 % va 17,5 % yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Kuzgi tritikale navlarini tajriba ekinzorida 1m² dagi o'simliklar soni qishlov, o'suv davrlari davomida o'simliklarning yorug'lik, suv, oziqa moddalar uchun o'zaro raqobati natijasida kamayib borishi kuzatildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kuzgi tritikale navlarini hosil yig'ishtirishgacha saqlanuvchanligi (yashovchanligi) Norman hamda Farxod navlarini erta (1.10) va o'rta (15.10) muddatlarda gektariga 5,0 mln.dona, ekish muddati kechki (30.10 va 14.11) muddatlarda ekish me'yorini gektariga 6,0 mln.dona ekish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Atabayeva X.N., Xudayqulov J.B. O'simlikshunoslik – Toshkent-2018. – B. 117.
2. Eshmurodova A.A., Bo'ronov A.Q. Tritikale morfologiyasi va uning kelib chiqishi. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 |Issue 2| 2022. – B. 496

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

3. Yakubjonov O., S.Tursunov, J.Muqimov. "Donchilik" – Toshkent – 2009. «Yangi asr avlodi». – B. 303.
4. Yormatova D. "O'simlikshunoslik" – Toshkent. «SHARQ» 2002. – B. 31.
5. Грабовец А.И., Крахмаль А.В. Перспективы возделывания озимой тритикале в центральном регионе России // Владимирский земледелец. – 2012. – № 1. – С. 16–19.
6. Nurmatov Sh., Mirzajonov Q., Avliyoqulov A., Bezborodov G., Ahmedov J., Teshaeв Sh., Holiqov B., Niyozaliev B., Hasanova F., Mallabaev N., Tillabekov B., Ibragimov N., Abdualimov Sh, Shamsiev A., Isaev S. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. Toshkent 2014. – B. 175.